

Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga fuqarolarimizdan minglab takliflar kelib tushgani, ular atroflicha muhokama qilinib, konstitutsiya mohiyatida aks etayotgani so‘zsiz yangi Asosiy qonunimiz xalqimizning dunyoqarashi, fikri va tafakkuri mahsuli sifatida tarixga muhrlanadi. Zero, konstitutsiya – haqiqiy ma’noda aytganda, mamlakatning huquqiy yuzi, insonlarning huquq va erkinliklarini himoyalaydigan hayotiy qomusdir. Hozirgi kunga qadar konstitutsiyamizga 16-marta o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lsa, ularning aksariyati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari vakolatlarini kengaytirishga oid bo‘lgan. Ochiq’ini aytganda, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ularni kafolatlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar, nazarimizda, chetda qolayotganday edi. Chunki har qanday mamlakat konstitutsiyaviy davlat bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, uning konstitutsiyasi qoidalari amalda bevosita ishlashi lozim. Bu nihoyatda muhim talab va zarurat hisoblanadi. Negaki, konstitutsiyaviy qoidalarning shaxs manfaatiga xizmat qilishiga qarab, jamiyat unga baho beradi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida hozirgi va kelajak hayotning huquqiy asoslarini takomillashtirish mas’uliyati va vazifasi vujudga keldi desak, hech ham xato qilmagan bo‘lamiz. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson-jamiyat-davlat manfaatlari mutlaqo boshqacha, ya’ni inson qadri, inson qadrini ulug‘lash, inson manfaatlarini har narsadan ustuvor qo‘yish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadi – xalqni rozi qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalash, hayot va turmush manzarasini tamomila yangi qiyofaga olib chiqish, eng muhimi, odamlarning konstitutsiyaviy islohotlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdir. Bugun Fanlar akademiyasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun va mohiyatini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot tadbiri Fanlar akademiyasining besh ming nafar xodimlariga jonli va (Videokonferensialoqa) shaklida ham tashkil etildi. Mamlakatning ilm-fani asosini yaratuvchi olimlarga Konstitutsiyaviy qonun loyihasi, unda ilm-fan ahliga qaratilgan alohida e’tibor batafsil tushuntirib berildi.



